

Kitob o‘qiyotganda yoki xat yozayotganda xonaning yoritilganligiga katta e’tibor berish kerak. Stolga yorug‘lik chap tomonidan tushishi lozim. Ishxonada kunduzgi yorug‘lik beruvchi lampalardan foydalanish zarur.

Ko‘rish organizmda A vitamini yetishmasligi sababli ham buzilishi mumkin. Alkogol va chekish ko‘zga salbiy ta’sir qiluvchi omillardan hisoblamadi. Tamaki tarkibidagi nikotin va boshqa moddalar ko‘rish nervlariga zarar yetkazadi. Shamolda, iflos qo‘l, kir sochiq yoki boshqa sabablar tufayli ko‘zga mikroblar tushib qolganida yallig‘lanish – *konyunktivit* paydo bo‘ladi.

Topshiriqlarga javob yozing va javobingizni tekshirib ko‘ring:

1. Atamalar va ularga mos tushunchalarni juftlab yozing: A – akkomodatsiya, B – ko‘rish o‘tkirligi, D – stereoskopik ko‘rish, E – kiprikli tana, F – albinizm, H – assotsiativ zona; 1 – ko‘z gavhari qavariqligini boshqaruvchi muskul, 2 – predmet tasvirining ikkala ko‘zning bir xil joyi, ya’ni sariq dog‘ga tushirilishi, 3 – melanin pigmenti bo‘lmasligi, 4 – gavhar egikligini o‘zgartirib, ko‘zni fokusga solish, 5 – funksiyasi analizatorlar ishimini muvofiqlashtirib turish, 6 – ikki nuqtani ular orasidagi eng kam masofada ajratish.
2. Atamalar va ularga mos tushunchalarni juftlab yozing: A – katarakta, B – konyunktivit, D – ko‘rish, E – glaukoma, F – sklera, H – melanin, G – daltonizm; 1 – ko‘zning ranglarni ajratolmaslik xususiyati, 2 – ko‘z gavharining xiralashuvi, 3 – teri pigmenti, 4 – ko‘z oqsil pardasi, 5 – ko‘z shilliq pardasining yallig‘lanishi, 6 – ko‘zning buyumlarning shakli, rangi va ular orasidagi masofani farq qilish xususiyati, 7 – ko‘rish nervining zararlanishi.

O‘ylab javob bering:

1. Albinizm kasalligida pigment rivojlanmasligi tufayli teri va uning hosilasi soch rangsiz bo‘ladi. U holda nima sababdan bunday kasallikka duchor bo‘lgan kishining ko‘zi qizg‘ish tusga kirib, ko‘rish o‘tkirligi keskin pasayadi?
2. Nima sababdan uzoqdagi narsalarga ko‘z qisib qaraymiz, yaqinga esa ko‘zimizni kattaroq ochib qaraymiz?

7-laboratoriya mashg‘uloti

Ko‘rish o‘tkirligini aniqlash.

Kerakli jihozlar va asboblar: Golovin jadvali, metr, ko‘rsatkich.

Ishni bajarish tartibi:

Tushuntirish. Ko‘z qorachig‘i yorug‘likda torayib, qorong‘ilikda kengayadi.

Har ikkala ko‘zning qorachig‘i bir vaqtida kengayish va torayish xususiyatiga ega. Buning boisi shundaki, ikkala ko‘rish nervlarining nerv tolalari bosh miya pastki qismida kesishadi, ya’ni o‘ng ko‘zning ko‘rish nervi tolalarining yarmi miyaning chap tomoniga, chap ko‘zning ko‘rish nervi tolalarining yarmi miyaning o‘ng tomoniga o‘tadi. Bu tolalar ikkala yarimsharlarning o‘rta miya sohasidagi to‘rti tepalik, deb ataluvchi po‘stloqosti nerv markaziga boradi. U yerda ko‘rish nervidagi qo‘zg‘alish ko‘z soqqasini harakatlantiruvchi nerv markaziga o‘tadi va uning tolasi orqali ko‘z soqqasiga kelib, ikkala ko‘zning qorachig‘ini ham bir vaqtida o‘zgartiradi.

- Golovin jadvali yorug‘lik yaxshi tushadigan devorga osib qo‘yiladi;
- tekshiriluvchi o‘quvchi jadvaldan 5 m narida tik turadi. U avval ko‘zini daftar (kitob) bilan to‘sib, o‘ng ko‘zi bilan jadvalni yuqoridan pastki qatorga tomon o‘qiydi;
- tekshiruvchi jadval yonida turib, ko‘rsatkich bilan jadvaldagi harflarni yuqori qatordan pastki qatorga tomon ko‘rsatadi;
- tekshiriluvchi ma‘lum qatorga kelib, harflarni to‘g‘ri aniqlay olmasa, qatordan yuqoridagi qatorning ko‘rsatkichi uning ko‘z o‘tkirligini aniqlaydi. Shu qatorning boshida yozilgan raqamga ko‘ra uning ko‘z o‘tkirligi aniqlanadi. O‘ng ko‘zidan so‘ng chap ko‘zining ko‘rish o‘tkirligi aniqlanadi;

Izoh. Ko‘rish o‘tkirligi normal odam jadvalning 10-qatorigacha harflarni ikkala ko‘zi bilan aniq ko‘ra oladi. Shunda ko‘zlarning ko‘rish o‘tkirligi 1,0 deb belgilanadi. 10-qatorдан yuqoridagi qatorlarni ko‘ra olganda ko‘rish o‘tkirligi har qaysi qatorga 0,1 ga kamayib boradi. Masalan, 9-qator – 0,9, 8-qator – 0,8 va hokazo.

55-§. Eshitish organlarining tuzilishi, eshitish gigiyenasi

Eshitishning ahamiyati. Odam atrof-muhitdan tovush to‘lqinlarini eshitish organlari orqali qabul qiladi. Eshitish orqali odam nutq o‘rganadi va o‘zaro muloqot qiladi. Eshitish analizatori ham ko‘rish singari periferik, o‘tkazuvchi va markaziy qismlardan iborat. Periferik qismga qulog, o‘tkazuvchi qismga eshitish nervlari, markaziy qismga bosh miya yarimsharlari eshitish zonasini kiradi (84-rasm).

Qulogning tuzilishi. Odam va boshqa sutmizuvchilar qulog‘i tashqi, o‘rta va ichki bo‘limga ajratiladi (85-rasm). *Tashqi qulog* qulog suprasi va tashqi eshitish